# Mavzu: Ikkinchi darajali bo‘laklarni so‘roqlar yordamida aniqlash

*O‘zi to‘g‘rining – so‘zi to‘g‘ri.*

**1-mashq. Gap bo‘laklarini so‘roqlar yordamida aniqlang.**

***Namuna:***

***Yosh tadqiqotchilar tanlovga puxta tayyorlandilar.***

**Bosh bo‘laklar:**
*(Kimlar?)* tadqiqotchilar – **ega**,
*(Nima qildilar?)* tayyorlandilar – **kesim**.

**Ikkinchi darajali bo‘laklar:**
*(Qanday?)* tadqiqotchilar – yosh tadqiqotchilar.
*(Nimaga?)* tayyorlandilar – tanlovga tayyorlandilar.
*(Qanday?)* tayyorlandilar – puxta tayyorlandilar.

1. Akmal harbiy kiyimda juda chiroyli[2] ko‘rinardi.
2. Zumrad bog‘dan terilgan mevalarni yuvdi.

**2-mashq. Berilgan so‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplar tuzing.**

1. do‘kondan, Odil, oldi, qarmoq.
2. yog‘ochga, Ravshan, ipni, bog‘ladi.
3. daryoga, bordilar, yakshanba[1], Bolalar, kuni.
4. Odil, tashladi, qarmoqni, suvga.
5. tutishdi, Bolalar, baliq, oltita.

- **Ikkinchi darajali bo‘laklarni so‘roqlar yordamida aniqlang.**

CHOP ETISH UCHUN EMAS

**3-mashq.** **To‘rt qismli so‘zlar bulutidan to‘rt bo‘g‘inli so‘zlar hosil qiling. Shu so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.**




**4-mashq.** **Nuqtalar o‘rniga ikkinchi darajali bo‘laklarni so‘roqlar yordamida aniqlab, gaplarni to‘ldiring.**

1. … … … … … odam uchramadi.

   boshqa kuni o‘tgan cho‘pondan yo‘lda

2. … … nurlari … … taraldi.

   dalalar quyoshning uzra zarrin

- **Gaplarni ko‘chirib, gap bo‘laklarini tegishlicha belgilang.**

**5-mashq.** **Nuqtalar o‘rniga matn mazmuniga mos so‘zlarni qo‘yib, ko‘chiring.**

Bolalar teleskop orqali ... kuzatdilar. Kumushrang oy va miltillagan yulduzlar juda yaqin ko‘rindi. ... cheksiz kengligi ularda katta qiziqish uyg‘otdi. ... boy tungi ... yorqin yulduzlar xuddi sochilgan javohirlardek charog‘on porlab turardi.

***Foydalanish uchun so‘zlar:*** osmonda, sirlarga, koinotning, yulduzlarni.

- **Gapdagi ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang.**

*9-dars.* ***1-nazorat ishi***
*10-dars.* ***Xatolar ustida ishlash***

